

14-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Muzaffarova Azizaning
O'qish fanidan bir soatlik
namunali dars
bayonnomasi

Sana:

Sinf: 3-“B”

Fan: O’qish

Mavzu: Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor” she’ri.

Maqsad:

- a) **Ta’limiy maqsad:** Muhammad Yusufning “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor” she’rini o’qish;
- b) **Tarbiyaviy maqsad:** She’r orqali o’quvchilarga aqliy, estetik, milliy tarbiya berish;
- c) **Rivojlantiruvchi maqsad:** She’rni o’qish orqali o’quvchilarni ifodali o’qishga o’rgatish;

DTS talabi: She’rni ifodali, ravon o’qiy bilish.

Dars jihozi: Muhammad Yusuf, Cho’lpon, Usmon Nosir suratlari, 9-may Xotira va Qadrlash kuni aks ettiruvchi rasmlar.

Dars usuli: Suhbat, savol-javob.

Darsning borishi


I. Tashkiliy qism

Darsga tayyorlanish.

Oy, yil, fasl, sana haqida so’rash.

II. O’tgan mavzuni so’rash

1. 9-may qachon, qanday kun deb e’lon qilindi?
2. Xotira va qadrlash maydonida nimalarni ko’rish mumkin?
3. Ikkinchi jahon urushi qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Yurtdoshlarimiz nima uchun kurashdilar?



III. Yangi mavzu bayoni

Muhammad Yusuf 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tug'ilgan. Uning birinchi she'riy to'plami 1985 yilda e'lon qilingan. Shoirning "*Vatanim*", "*Xalq bo'l elim*", "*Dunyo*", "*O'zbekmomo*", "*Tilak*" kabi o'nlab she'rlari yurtni kuylagan buyuk asarlar bo'lib qoldi.

Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusufga 1998 yilda "*O'zbekiston xalq shoiri*" unvoni berildi.

Shoir Muhammad Yusuf xuddi Boburdek bor yog'i 47 yil umr ko'rdi. Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug'ilishi, kamol topishi, o'zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi.

Muhammad Yusuf 2001 yilning 31 iyulida Qaraqalpog'istonning Ellik qal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog'ida yuzlab muxlislari qarshisida she'r o'qiyotgan paytida yurak xurujidan vafot etdi.

Darslik bilan ishlash

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor
Toshlarni yog'latgan dostonlaring bor
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku og'ir olma so'zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latdan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qurboning bo'layin, ey onajonim
Sening faryodlaring – mening fig'onim.
O'tmishingni o'ylab ortanar jonim
Aytsam ado bo'lmas armonlaring bor.

Lug'at ishi

Ado bo'lmas – tugamas
Armon – ushalmagan arzu
Shahid – urushda halok bo'lgan
Qo'ling qadog'iga – mehnatda qabargan qo'l
O'rtanar – qiynalish, og'riq

She'r tahlili: Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor
Toshlarni yog'latgan dostonlaring bor
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Shoir bu she'rni yurtga, ona Vatanga bag'ishlagan. Yurtim, sening ushalmagan orzu-armonlaring juda ko'p. Ularni aytsam sira ado bo'lmaydi, tugamaydi.

Orzu-armonlaringdan yaralgan Alpomish, Go'ro'g'li kabi dostonlaringni eshitgan toshlar ham yig'laydi.

O'tmishingni esga olsam ko'nglim og'riydi. Jonim qiynaladi. Shoir bu bilan Vatanimiz tarixida bo'lib o'tgan (1936-1937 yil) qatag'on yillarni mustaqillikdan oldingi davrlarda 1980 yillardagi "paxta ishi", "O'zbek ishi" kabi soxta bahonalar niqobi ostida qanchadan qancha yurtdoshlarimiz el-yurtidan uzoqda xor-zorlikda halok bo'lishgan.

Sening bag'ring ana shunday yurtdoshlarimiz ikkinchi jahon urushida, Afg'on urushlarida halok bo'lgan yigitlar bilan to'la.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latdan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

O'zbek xalqi mehnatkash, mehribon bag'rikeng xalq. Buni 2-jahon urushi davrida Toshkentni – non shahri deb atalganidan yoki urush bo'lgan yerlardagi bolalar evakuasuya – ko'chirib kelganida bitta oila 10 ta 15 tagacha bolalarni o'z bag'riga olib o'z farzandiday tarbiya qilganini aytish mumkin.

Sizga tavsiya qilar edim 9-may kuni ertalab 9⁰⁰da oynai jahon orqali beriladigan “Sen yetim emassan” filmini tomosha qilsangiz o'zbek xalqining bag'rikengligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Cho'lpon 1897 yil Andijonda Qatortarak mahallasida tug'ilgan. U mohir lirik shoir, iste'dodli yozuvchi va dramturgidir. Cho'lponning “Go'zal” she'rini oynai jahon orqali ko'p eshitgan bo'lsangiz kerak.

Go'zal

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib
Aytadir: Men uni tushda keramen
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal!
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!

Ana shunday go'zal she'rlar muallifi haqiqat kuychisi erk farzandi Cho'lpon 1937 yil 13 iyulda qamoqqa olinadi. Uzoq qiynoq va tahqirlardan keyin 1938 yil 4 oktabrda Toshkent yaqinidagi xilvat joylarning birida otib tashlanadi. Dahshatlisi shundaki Cho'lponni o'limga hukm qilgan sud qarori 1938 yilning 5 oktabrida chiqarilgan edi. Dushmanlar xalqimizning asl farzandlari Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi ma'rifatparvarlarni tezroq yo'q qilishga odamlarni esa ma'naviyat buloqlaridan bebahra qolishga shoshilar edi.

Mustaqillikdan so'ng ular o'zbek she'riyatining yorqin yulduzi sifatida milliy she'riyat osmonida qayta porladi.

Cho'lpon – Yorqin yulduz degan ma'noni bildiradi.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku og'ir olma so'zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Shoir Vatanni onaga, qo'li qadoq mehnatkash ayolga qiyoslaydi. Sening farzanding Usmon Nosirning ochiq ko'zlarini sen emas, yaqinlari emas uzoq chet o'lkalarning barglari yopdi. Bu so'zlarimni ko'nglingga olma.

Usmon Nosir ham qatag'on yillar qurboni bo'lgan. U 1912 yil 13 noyabrda Namanganda tug'ilgan. 1937 yilda hisbga olingan. Umrini sho'ro lagerida xor zorlikda 1944 yil 9 martda Kemerova viloyatidagi lagerlardan birida og'ir xastalikdan vafot etdi.

Qurboning bo'layin, ey onajonim
Sening faryodlaring – mening fig'onim.
O'tmishingni o'ylab ortanar jonim
Aytsam ado bo'lmas armonlaring bor.

Shoir Muhammad Yusuf yurt dardini o'z dardidek ko'radi. O'tmishdagi azob-uqubatlar o'ylab joni quynaladi. Qancha aysam ham armonlaring tugamaydi deydi.

Biz hozir 9 may – Xotira va Qadrlash kuni arafasida turibmiz. Sizlarga Muhammad Yusufning Afg'onistonda halok bo'lgan askar yigit Ibrohim Axmedov xotirasiga bag'ishlab yozgan "Ibrohim" madhiyasini o'qib bermoqchiman.

Shoir Muhammad Yusuf o'zining "Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri bilan bizning ana shunday baxtli hayotimiz, mustaqilligimiz qancha qurbonlar evaziga kelganini uqtirmoqchi.

Biz ham o'zimizga yaratilgan ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, a'lo baholarda o'qib, kelajakda yurt uchun kerak inson bo'lishga harakat qilishimiz orqali ularning ishonchlarini oqlashimiz kerak.

"Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri ifodali o'qiladi.

Barcha o'quvchilar o'qitilishidan oldin shoir Muhammad Yusufning o'z tilidan aytilgan "Lolaqizg'aldoq" she'ri o'quvchilarga eshittiriladi.

Sinfimizning yigit va qizlari shoir Muhammad Yusufning 2 ta she'rini aytishuv tarzida tayyorlab kelganlar. She'rlarni maromiga yetkazib ayta olsangiz shoir ruhi shod bo'ladi degan umiddamiz. She'rni yod olgan o'quvchilardan so'raladi.

IV. Darsni mustahkamlash

TEST

1. "Baxtsizlik yuz berganda tasalli beradigan do'st-ku?"

Bu jumla qaysi ertakdan olingan?

- a) Do'stlar b) Hassa d) Chin o'rtoq
2. "Erinchoq ikki ishlar, oxiri barmog'in tishlar" maqoli qaysi hikoya mazmuniga mos?
- a) Yordam berdi b) Hassa d) Sohiba kimdan xafa?
3. "Noahillik oqibati" ertagiga qaysi maqol mos keladi?
- a) Bo'linganni bo'ri yer, ayrilganni ayiq yer.
b) Do'sr achitib gapirar, dushman kuldirib.
d) tuzsiz oshim, do'stsiz boshim.
4. Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor. Qaysi she'rdan olingan?
- a) Kamtarlik haqida b) Hunarni sev d) Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor
5. Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring – mening fig'onim. She'rini davom ettiring.
- a) Qayinbarglar bosib qaro ko'zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.
b) O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,
Aytsam ado bo'lmas armonlaring bor.
d) O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor

Biz bugungi darsimizda nimani bilib oldik? Nimani o'rgandik?

V. Uyga vazifa

She'rni yod olish. Shaxsiy kutubxonani she'riy kitoblar bilan boyitish.

VI. Baholash

Darsda aktiv qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish

VII. Darsni yakunlash

She'rlari insonlar qalbidan joy olgan shoir.

Assalom ona yurt- tonglar o'lkasi,
Ta'rif tavsifingni yo'q nihoyasi
Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq,
Bu o'zbek elining o'z madhiyasi.

1-boshlovchi: Assalom ustozlar qalbi quyoshlar,
Mehringiz nuridan bahramand yoshlar.
Yurakdan siz uchun aytayin kalom,
Ta'zim aylab deyman salom-assalom!

2-boshlovchi: Bu hayotning ziynati, bahru- bashorat, assalom!
San'ati so'z naqshi bu, nur hidoyat assalom.

1-boshlovchi: Assalomu-aleykum hurmatli ustozlar, qadrli o'quvchilar. Bugun sizlar bilan xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga bag'ishlab, uni xotirlab ***"She'rlari insonlar qalbidan joy olgan shoir"*** deb nomlangan tadbirni o'tkazmoqdamiz. Marhamat tinglab tomosha qiling.

2-boshlovchi: Hozirgi davr o'zbek milliy' adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954 yil 26 aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida oddiy oilada tavallud topdi. O'rta maktabni tugatgandan so'ng respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi. 1978—1980 yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980—1986 yillarda «Toshkent oqshomi» ro'znomasida, 1986—1992 yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, umrining so'ngi yillarida esa «O'zbekiston ovozi» ro'znomasida faoliyat ko'rsatdi.

1-boshlovchi: U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurgan. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989) «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun unga respublika Yoshlar mukofoti berildi.

2-boshlovchi: Bu yil she'riyat ixlosmandlari. Muhammad Yusuf ijodining muxlislari, 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan she'r talabgorlari sevimli shoirning 60 yilligini keng davralarda nishonlaydilar.

1-boshlovchi: Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi-maydonlaring bor...

2-boshlovchi: Shoirning «Yolg'onchi yor» (1994) va «Osmonimga olib ketaman» (1998-yil) she'riy to'plamlari keying yillardagi eng sara asarlaridan tashkil topgan.

1-boshlovchi:
Ey do'stlarim, dunyoda
Ortda qolgan yot yaxshi.
O'nta nomard do'stingdan,

Bitta cho'loq ot yaxshi.
2-boshlovchi:
To'qligingda yo'qlagan
Qarindoshdan yot yaxshi,

Ey do'stlarim, dunyoda

O'zbek haqida ballada

Qiyosi yo'q uning mehri bir daryo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi O'zbek.
Boshqa millatlarni bilmadim, ammo,
Dunyoda bolam deb yashaydi O'zbek!

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uningchun,
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun.
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Qoshlari qalam deb yashaydi O'zbek!

Bir qo'lda belanchak, bir qo'lda Qur'on,
Bir elkada ketmon, birida iymon.
Barchaga barobar oftobsimon,
Yashnasin olam deb yashaydi O'zbek!

Bobolari qaysi yigitlardan kam,
Momolari hushro'y yuzdan oshsa ham.
Zurriyodlari bo'lsa bitta uyga jam,
To'shak yetmay to'nin to'shaydi O'zbek!

Ehtirom etganga ehromlari bor,
Kekkayganga bo'yin egmaydi zinhor.
Beshik to'la jajji islomlari bor,
Tosh o'tmas qo'rg'onga o'xshaydi O'zbek!

Qiyosin topdingmi aytgin Muhammad?
O'xshasa o'ziga o'xshaydi O'zbek.
Yomon she'r yoqsang ham betingdan o'pib,
Kam bo'lma bolam deb yashaydi O'zbek!

Yangi yil kechasi

Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'nggida,
Bilmam, nimang bilan sehlaring, qor.
Bugun kuppa-kunduz ko'zim o'ngida,
Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor.
Qirqinchi qasrmga o'taymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?..

Bahorim yetkudek qo'lim uzatsam,
Yetolmay dilimni ne deb yupatsam.
Laylakqor, azizim, g'alat bayram bu —
Kulib kuzatsammi, yig'lab kuzatsam...
Dardim jim ichimga yutsammi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Ortda qolgan iz yaxshi.

Xavotir

Qo'rqaman, ertaga men o'lib ketsam,
Yotar bo'lsam qumga botib ko'zlarim,
Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am —
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Eng yaqin do'stlarim g'iybatim qilar,
Eng zaif dushmanim ustimdan kular.
Ular-ku, ne qilsa o'zlari bilar,
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Shoir o'lsa kim ham kuyinar deysiz,
Madhoyaboz hozir suvarakday ko'p.
Ular misli qishda tarnovdagi muz,
Barmoq tegsa yerga to'kilar to'p-to'p...

Tildan qolsam ko'zda qotib yoshlarim,
Ko'nglimdan boshqa bor axir, ne zarim?
Yerlarga egilgan kuni boshlarim,
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...

Ular yosh. O'limdan qo'rqaman yomon,
Chunki, dardiga hech quloq solmadim.
Qabrimning ustida yig'lasin debon,
Qizlarim ko'zyoshin asray olmadim!

So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq,
Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,
Ko'zda tabassum - u kiprikda titroq.
Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi,
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Yangi yil, Kelaver qanday kelsang ham,
Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi.
Sen yangi yo'ldoshsan, sen yangi hamdam,
Yo'qlab kelganingni o'zi bir bayram.
Qulog'ingga bir aytaymi, endi,
Kechagi yoshligim ertakmi, endi...

Orzu

Tug`ilmasdan oldin men
Chiqib Arshi a`loga,
Oyni o`pib, qoldim men
Yulduzlardan baloga.

Tug`ilgandan to shu dam,
Qo`msab kecha-kunduzlar.
Oy qani deb yig`lasam,
G`iybat qilar yulduzlar...

Hiqqillama, der yurak,
Dunyo bilan ishim yo`q.
Bo`lsa menga Oy kerak.
Yulduzlarga hushim yo`q!

Tavallo

Oq yo`rgakka o`ragansan o`zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o`zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo`lib,
Kunimizga yaragansan o`zing bizni.
Fidoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Tuzing totib, unutanlar xor bo`ladi,
Ko`zlariga ikki dunyo tor bo`ladi.
Shodon daming ko`rolmagan yurtfurushlar
Bir kun bir kaft qumlog`ingga zor bo`ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!..

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o`g`loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o`pib,
Yovlar yaqin yo`lolmagay qo`rg`oningga.
Adoying bo`lgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston.

Gul ko`ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadilu ulug`vorlik senga xosdir.
Sevamizki, cho`llaring ham bizga jannat,
Tuprog`ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko`rgaymiz seni, O`zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O`zbekiston!

1-boshlovchi: An`analarga boy o`zbek shariyatining yorqin yulduzi Muhammad Yusuf o`zining alohida o`rniga ega. Biz XX asr o`zbek adabiyotini Abdulla Qodiriy, G`afur G`ulom, Oybek kabi mumtoz adiblarsiz, zamonaviy adabiyotimizni Said Ahmad, Erkin Vohidov singari ijodkorlarsiz tasavvur eta olmaganimizdek,- deb ta`kidladi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, - ma`naviy kelajagimiz, farovon va buyuk istiqbolimizni Muhammad Yusufsiz tasavvur qila olmaymiz. Hozirgi davrda ham uning she`rlari xalqimizni adolat tantanasi, yorug` kelajakka ishonch ruhida tarbiyalaydigan yuksak ma`naviy omil bo`lib xizmat qilgan.

2-boshlovchi: Davramizda o`tirgan she`riyat ixlosmandlari Muhammad Yusuf she`rlaridan tinglang. Marhamat.

QO`SHIQ : "XALQ BO`L ELIM".

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.
Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni,
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Bag'rim o'rtar bir o'y bahor ayyomlar,
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi-maydonlaring bor...

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar -
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,

Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring, mening fig'onim,

O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,

Onamga xat

Men sizni o'ylayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun bo'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat.

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men - zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...

Mana, ketayapman tosh yo'lda ko'zim,
Qadamim moshinlar yo'rg'asiga mos.
Yig'lasam yupatib o'zimni o'zim,
Pishqirib qo'yaman toychoqlarga xos.

Va sizni o'ylayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmasdan.
Tunlari charog'on shunday shaharda
Hech kimga ko'nglimni yora olmasman...

Ha, sevgi haqida. U dilga ne zeb,
Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib.
Baxtinga hamisha Siz sog' bo'ling deb,
Sog'ingan o'g'lingiz - Muhammad Yusuf.

QO'SHIQ : "ULUG'IMSAN VATANIM"

UZR

Shuhratga o'ch bo'lsam kerak men gumroh,
Yolg'on bo'lsa kerak dilda nolam ham.
To'pori baytlarim bitar paytim goh
Ko'zimga ko'rinmay qolar bolam ham.

Olamni erkalab erka so'z izlab,
Bolamni erkalab bir so'z aytmayman.
Mushukday suykalib kelsa ham muzlab,
Betidan bir o'pmay uydan haydayman.

Qalam ushladimmi demak - o'yin bas,
Yayrab ocholmaydi gul dudog'ini.

Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor.

Ota

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada o'tlar bosgan o'rmonim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yonib yashab o'tmagan otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oyu yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Esaversin jannatlardan kelgan nasim,
Momo yerim, o'zingsan eng muqaddasim,
Bag'ringda jim tinglab bu tun jon nafasim,
Ruhimni allalab yotgan jahonim bor.

Odam bo'lib bir odamni tushunmaslar,
Ko'zingda yosh ko'rib ham goh o'kinmaslar,
Bosgan izim poylab yurgan ey, nokaslar,
Qabrdan qo'l cho'zib turgan qalqonim bor...

Men otamdan qolgan erkin sado-sasman,
Qonimga yot navolarga qayrilmasman,
O'lgunimcha endi undan ayrilmasman -
O'z otamdek bo'lib qolgan imonim bor.

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Keng dalada gullar bosgan o'rmonim bor,
Qizg'aldoqlar bosh egib qon yig'lab turgan
Bu makonda mening ham nurjahonim bor.

Bundoq yurak yutib so'rasha olmas,
Xonamda qoldirgan qo'g'irchog'ini.

Burchak-burchakda jim tortishar burun,
Bilman qanday o'yu xayol ichida.
Tuzsiz she'rlarim deb shirindan-shirin
Bolalarim yurar oyoq uchida...

Ular she'r yozmasin hech menga o'xshab
Mendan nafi ko'proq tegar elimga.
Shoh asar bo'lsa ham tupurdim o'sha -
Bolamni yig'latib yozgan she'rimga!

Ajab dunyo

Ikki buyuk shoir, ikki musofir –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.
 Sizni o'ylatmasmi bu jumboq, bu sir,
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...
 Buni tasodifmi atayin, ayting,
 Qitmir qismat o'yni deyinmi yo bir?
 Ko'rib qo'y, Turkiston, ikki shoh bayting –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.
 Jafo etganga ham jabr etmadik,
 Gadoni siyladik goho, xudo bir.
 Daholarimiz qadriga yetmadik –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

Yer yonar jahannam afg'onda yal-yal,
 Kulrang ko'rpa yanglig' bulut yonodur.
 Yonar ne tiklagan bo'lsa bir mahal –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.
 Ikki buyuk hikmat, ikki xush zabon,
 Ikki buyuk dildan yo'qdir sado bir.
 Biz g'animga bejang topshirgan qo'rg'on –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.
 Uchrashishmagandi ular hayotda,
 Yoturlar yonma-yon ikki lahatda.
 Nima deysiz endi, hayot-hayot-da –
 Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

QIZLAR RAQSI

O'quvchi: Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi. U muhabbat haqida kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz va taqdirimiz sahifalarini qalamga oladimi, ularga hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi. Uning she'rlari ravon va soddaligi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohangdir. Shoirning "Mehr qolur" she'rini eslang yoki "Vatan" she'rini eslang.

O'quvchi: Shoir she'riyati ham shunday. Mehringizda, qalbingizda qo'shiq bo'lib qoladi. Vatan mehrini dilga joylaydi, do'stlikni ulug'laydi. 1998-yil shoir hayotida o'chmas iz qoldirdi unga "O'zbekiston xalq shoiri" degan yuksak unvon berildi.

O'quvchi: Shoir Muhammad Yusuf istiqlolni qadriga yetish, Vatanni ko'z qorachig'idek asrash o'tmish sadolaridan qat'iy xulosa chiqargan shoiridir.

O'quvchi: Shoir Abdulla Oripov Muhammad Yusuf haqida shunday degan ekanlar. U obro' talashmas, izzatini so'raqlab yurishdan orqilardi. Xuddi shundoq yaxshi inson gina yaxshi ijodkor bolishi tabii va qonuniy dir. Shu kabi yuksak fazilatlarini tufayli Muhammad Yusufni halqimiz ardoqladi. Yurt boshimiz otalarcha mexir ko'rsatdi uning xizmatlarini davlatimiz munosib baxoladi u O'zbekiston xalq shoiri edi.

O'quvchi: O'ping ko'zingizga, suring tuprog'im,
 Har so'zin muqaddas duodek seving.
 Qadang yuraklarga millat bayrog'in,
 Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.

O'quvchi: Ko'nglimning gavxari shu aziz maskan,
 Fidodir hamisha unga jonu tan.
 Otalar himmatin yodi mash'ali,
 Onalar oqsuti hurmati – Vatan.

1-boshlovchi: Istiqlol yillarida erishgan yuksak ijodiy yutuqlari uchun Muhammad Yusuf 1998-yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. Muhammad Yusufning umri qisqa bo'ldi. U 2001-yilning 31-iyulida Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumaniga qilingan ijodiy safar chog'ida, yuzlab muxlislari qarshisida she'r o'qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etdi. Xuddi Boburdek, Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf ham bor-yo'g'i 47 yil umr ko'rdi. Biroq bu umr bir dilbar shoirning tug'ilishi, kamol topishi, o'zini voyaga yetkazgan yurt va millatga samimiy va ixlos ila xizmat qilib, ortidan yaxshi nom qoldirishi uchun kifoya qildi...

2-boshlovchi: Samimiy she'rlari ohangrabo qo'shiqlarga aylanib, har bir o'zbek xonadoniga kirib borgan lirik shoir Muhammad Yusuf XXI asr o'zbek adabiyotida so'nmas yulduz bo'lib har bir dillarda porlaydi. Shoir o'z ona vataniga, tabiatga va insoniyatga bo'lgan iliq hissini o'zining yuraklarni larzaga soluvchi, garchand sodda tilda yozilgan bo'lsa-da odamni chuqur o'yga chorlovchi she'rlari bilan o'quvchi qalbida o'chmas iz qoldirgan.

1-boshlovchi: Muhammad Yusuf she'rning qo'shiqqa aylanishi, yuksak parvoz qilishini ko'rsata oldi. Shoir she'rlaridagi har bir so'zda qanoat, parvozga shaylik bor. Ulug'vor muhabbat, o'talmagan burch, qadrlanmagan sevgi armoni, Yurtga o'g'illik sadoqati – shoir she'rlari asosini belgilaydi.

2-boshlovchi: Muhammad Yusuf qisqa umr kechirdi. Undan chinakkam, betakror ijodiy meros qoldi. Shuning bilan Muhammad Yusuf xotirasiga bag'ishlangan tadbirimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun tashakkur aziz davramiz qatnashchilari. Xayr sog' va salomat bo'ling.



*Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
14-umumiy o'rta ta'lim maktabining*

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Muzaffarova Azizaning

*“She’rlari insonlar qalbidan joy olgan shoir”
deb nomlangan tadbiri*

